

5-Avgust, 2026-yil

**ALIMENT MAJBURIYATLARINI IJRO ETISHDA NORASMIY DAROMAD VA
MEHNAT MIGRATSIYASI OMILLARINING TA’SIRI**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Tergov faoliyati 2-kurs talabasi

Qalandarova Xadichabonu Ravshan qizi

aloqa uchun: +998948670025 xadichakalandarova2006@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta’minoti uchun aliment undirish institutining amaldagi huquqiy tartibga solinishi tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning markaziy e’tibori ikki omilga qaratilgan: birinchidan, norasmiy daromadlar sharoitida aliment miqdorini adolatli belgilash muammosi, ikkinchidan, tashqi mehnat migratsiyasi sharoitida aliment majburiyatlarni chegaralararo ijro etishning huquqiy bo‘shliqlari. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi normalari va Oliy sud Plenumining 2016-yil 29-iyuldagi 11-sonli qarori (keyingi tahrirlari bilan birga) tahlil qilinib, ularda mazkur ikki omilga nisbatan yetarli huquqiy mexanizm mavjud emasligi asoslab beriladi. Xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil o‘tkazilib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *aliment majburiyati, oila huquqi, norasmiy daromad, soya iqtisodiyoti, mehnat migratsiyasi, bolalar ta’minoti, Oliy sud Plenumi, chegaralararo ijro, Gaaga konvensiyasi.*

Abstract: *This article critically examines the current legal regulation of child support (alimony) obligations in the Republic of Uzbekistan concerning both minor children and adult children who are unable to work. The study focuses on two key issues. First, it analyzes the challenges of determining a fair amount of alimony in cases where the payer receives informal or unreported income. Second, it explores the legal gaps in the cross-border enforcement of alimony obligations under conditions of external labour migration. Based on an analysis of the provisions of the Family Code of the Republic of Uzbekistan and Resolution No. 11 of the Plenum of the Supreme Court of 29 July 2016 (including its subsequent amendments), the article demonstrates that the existing legal framework does not provide sufficient mechanisms to address these issues effectively. A comparative analysis of foreign legal practices is also conducted, and specific recommendations are proposed to improve the national legislation.*

Key words: *alimony obligation, family law, informal income, shadow economy, labour migration, child maintenance, Plenum of the Supreme Court, cross-border enforcement, Hague Convention.*

KIRISH

Bolaning munosib moddiy ta’minotga ega bo‘lishi oila huquqining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ota-onaning farzandini voyaga yetguniga qadar moddiy jihatdan ta’minlash majburiyati milliy qonunchilikda alohida kafolatlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasi va Oila kodeksining 96 va 100-moddalarida ushbu majburiyat

“DUNYO TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG'OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Avgust, 2026-yil

aliment institutining huquqiy asosini tashkil etadi. Biroq huquqiy normalarning mavjudligi ularning har doim ham amaliyotda samarali ishlashini anglatmaydi. Xususan, akiment undirish jarayonida yuzaga kelayotgan ayrim ijtimoiy va iqtisodiy omillar amaldagi huquqiy mexanizmlarning samarali ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan ikki

tendensiya: norasmiy sektorning yuqori ulushi va aholining tashqi mehnat migratsiyasi miqyosining oshishi — aliment undirish amaliyotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Daromadning rasmiy hisobga olinmasligi aliment miqdorini adolatli belgilash jarayonini murakkablashtirsa, qarzdorning uzoq muddat xorijda bo'lishi sud qarorlarini ijro etishda qo'shimcha qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Jahon bankining hisobotiga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotini yanada barqarorlashtirish uchun norasmiy bandlik va soliqdan yashirilgan daromadlar ulushini qisqartirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [6]. Xuddi shunday, mintaqadagi tadqiqotchilar Markaziy Osiyodan Rossiya Federatsiyasiga yo'nalgan mehnat migratsiyasining nafaqat vaqtinchalik, balki uzoq muddatli va oilaviy xususiyat kasb etayotganini qayd etadilar [8; 9], bu esa aliment munosabatlarning transchegaraviy tusga kirishini anglatadi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining

2016-yil 29-iyuldagi 11-sonli qarori, garchi 2018-2025 yillarda bir necha bor qayta ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, mazkur ikki muammoga tizimli yechim taklif etmaydi. Ushbu holat maqolaning ilmiy-amaliy dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi — aliment undirish sohasidagi milliy huquqiy tartibga solishni norasmiy daromad va mehnat migratsiyasi nuqtai nazaridan tanqidiy tahlil qilish, mavjud bo'shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Aliment majburiyatlari oila huquqining muhim institutlaridan biri bo'lib, ushbu sohada yuzaga kelayotgan muammolar keng ko'lamda o'rganilmoqda. Biroq mavjud adabiyotlarning katta qismi aliment miqdorini hisoblashning texnik-protsessual tomoniga e'tibor qaratib, uning ijtimoiy-iqtisodiy kontekstini xususan, norasmiy bandlik va migratsiya omillarini chetlab o'tadi.

Norasmiy iqtisodiyot muammosi bo'yicha xorijiy adabiyotda F. Snayder

(F. Schneider)ning "soya iqtisodiyoti"ni o'lchash metodologiyasiga bag'ishlangan fundamental ishlari alohida o'rin tutadi; uning yondashuvlari (MIMIC modeli, valyuta talabi usuli) keyinchalik o'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan milliy sharoitga moslashtirilib qo'llanilgan [4]. S.B. Pirnafasovning 2025-yilgi tadqiqotida 1996–2026-yillar oralig'ida O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot dinamikasi keng qamrovli tahlil qilinib, norasmiy bandlikning yuqori ulushi soliq yuki va institutsional ishonchsizlik bilan bog'liqligi asoslab berilgan [5]. Bu xulosalar oila huquqi nuqtai nazaridan muhim, chunki aynan shu "ko'rinmas" daromad guruhi ko'pincha aliment to'lovchilar safidan ham o'rin oladi.

Migratsiya konteksti bo'yicha E.V.Tyuryukanova hammuallifligida o'tkazilgan Markaziy Osiyodan Rossiyaga mehnat migratsiyasi bo'yicha monografik tadqiqot [9], shuningdek D.V.Poletaevning ayollar migratsiyasi dinamikasiga bag'ishlangan maqolasi [8] migratsiyaning

oilaviy munosabatlarga ta’sirini ijtimoiy nuqtai nazardan yoritadi. V.I.Mukomel rahbarligidagi tadqiqotchilar guruhi migrantlarning Rossiyadagi moslashuv va integratsiya jarayonlarini tahlil qilib, oilalarning parchalanishi va transchegaraviy moddiy majburiyatlarning shakllanishi bilan bog‘liq muammolarni qayd etadi [10]. Shunga qaramay, ushbu ishlarning aksariyati sotsiologik yo‘nalishga ega bo‘lib, huquqiy-normativ tahlil chuqurligiga ega emas.

Xalqaro xususiy huquq sohasida aliment majburiyatlarning transchegaraviy ijrosi masalasi 1993-yilgi "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi MDH Konvensiyasi (Minsk konvensiyasi)

32-moddasida tartibga solingan [11], biroq bu norma faqat MDHga a'zo davlatlar doirasida amal qiladi va zamonaviy migratsiya yo‘nalishlarining barchasini (masalan, Yevropa Ittifoqi yoki Koreya Respublikasi) qamrab olmaydi. 2007-yilgi Gaaga konvensiyasi esa xalqaro miqyosda universal mexanizm sifatida e'tirof etilgan bo‘lib, 56 dan ortiq davlatni birlashtirgan bo‘lsa-da [12; 13], O‘zbekiston Respublikasi hozirgi kunga qadar ushbu konvensiyaga qo‘shilmagan.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, milliy oila-huquqiy doktrinada aliment undirishning protsessual jihatlari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, uni norasmiy iqtisodiyot va migratsiya kontekstida kompleks tahlil qiluvchi maxsus ishlar amalda mavjud emas. Aynan shu bo‘shliq ushbu maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: formal-yuridik (dogmatik) usul — Oila kodeksi normalari va Oliy sud Plenumi qarorini tizimli tahlil qilishda; qiyosiy-huquqiy usul — milliy tartibga solishni xorijiy davlatlar (AQSh, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi) tajribasi bilan solishtirishda; tizimli tahlil

usuli — huquqiy normalar bilan ijtimoiy-iqtisodiy statistik ko‘rsatkichlar (norasmiy bandlik ulushi, migratsiya oqimi hajmi) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashda. Tadqiqotning empirik asosini O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, Oliy sud Plenumining amaldagi va bekor qilingan tahrirlari, shuningdek yuqorida ko‘rsatilgan ilmiy adabiyot va rasmiy statistik hisobotlar tashkil etadi.

Tahlil natijalari va muhokama

1. Norasmiy daromad sharoitida aliment miqdorini belgilashning huquqiy-amaliy muammolari

Oila kodeksining 99-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan bolalarga aliment otananing "har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining muayyan qismi" (bir bola uchun 1/4, ikki bola uchun 1/3, uch va undan ortiq bola uchun yarmi) miqdorida undiriladi. Oliy sud Plenumining tahlil qilinayotgan qarorining 8-bandida ushbu qoida yana bir bor tasdiqlanadi. Bu norma o‘zida mantiqiy va adolatli tamoyilni mujassam etadi: aliment to‘lovchining moddiy ahvoli o‘zgarganda, to‘lov miqdori ham proporsional ravishda o‘zgaradi.

Biroq mazkur mexanizm faqat rasmiy, hujjatlashtirilgan daromad mavjud bo‘lgan taqdirdagina samarali ishlaydi. Amaliyotda esa norasmiy iqtisodiyotning ulushi sezilarli

darajada yuqori bo‘lib qolmoqda [5; 6], bu esa aliment to‘lovchilarning muayyan qismi rasman minimal ish haqi asosida hisobotga kiritilgan holda, aslida undan ancha yuqori — jumladan naqd pul shaklidagi yoki norasmiy tadbirkorlik faoliyatidan tushadigan — daromadga ega bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Qarorning 6-bandida bunday holat uchun yagona yechim taklif etiladi: agar qarzdor "shu vaqtda ishlamasa yoki uning ish haqi va (yoki) daromadini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinmagan bo‘lsa", davlat boji (va tegishli hisob-kitoblar) qonunchilikda o‘rnatilgan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kelib chiqib belgilanadi.

Ushbu yondashuvning tanqidiy jihati shundaki, u qarzdorning haqiqiy iqtisodiy holatini emas, balki uning rasmiy maqomining yo‘qligini asos qilib oladi. Natijada, norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi, ammo real daromadi o‘rtacha yoki undan yuqori bo‘lgan shaxs qonuniy ravishda eng kam ish haqi asosida hisoblangan alimentni to‘lash bilan cheklanib qolishi mumkin — bu esa bolaning moddiy ta‘minot olish huquqini amalda cheklaydi. Qaror matnida sudlarga qarzdorning yashash sharoiti, mulki, iste‘mol xarajatlari kabi bilvosita ko‘rsatkichlar asosida daromadni baholash vakolati yoki majburiyati berilmagan — bu jiddiy huquqiy bo‘shliq hisoblanadi.

2. Mehnat migratsiyasi sharoitida aliment majburiyatlarni ta‘minlashning huquqiy bo‘shliqlari

Amaldagi qonunchilikda migratsiya bilan bog‘liq bitta muhim kafolat mavjud: aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs doimiy yashash uchun yoki uch oydan ortiq muddatga chet davlatga ketayotganda, aliment oluvchi bilan aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzishi shart, aks holda manfaatdor taraf sudga murojaat qilib, alimentni bir yo‘la to‘lash yoki mol-mulk hisobidan qoplash to‘g‘risida talab qo‘yishga haqli. Bu norma nazariy jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilgan, biroq amaliyotda uning bajarilishi deyarli hech qanday tashqi nazoratga bog‘liq emas — chegara xizmati, fuqarolik holati dalolatnomalari yozish organlari va sud tizimi o‘rtasida avtomatik axborot almashinuvi mexanizmi amalda faoliyati yo‘q, shuning uchun ko‘plab hollarda ota-ona chet elga chiqib ketishi haqidagi ma‘lumot aliment munosabatlarning ikkinchi tarafiga umuman yetib bormaydi.

Tahlil qilinayotgan Plenum qarorining 24 bandi ichida mehnat migratsiyasi, chet davlatda joylashgan qarzdordan aliment undirishning xalqaro-huquqiy tartibi yoxud xorijiy sud hujjatlarini tan olish va ijro etish tartibi haqida bironta ham band mavjud emas. Bu jiddiy kamchilik hisoblanadi, zero O‘zbekiston fuqarolarining sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarda mehnat faoliyati bilan band ekanligi, bunda migratsiyaning tobora oilaviy xususiyat kasb etayotgani ilmiy adabiyotda alohida qayd etiladi [8; 9; 10]. Bunday sharoitda bola bilan O‘zbekistonda qolgan ota yoki ona amalda quyidagi muammolarga duch keladi: birinchidan, qarzdorning chet eldagi real daromadini aniqlashning huquqiy mexanizmi yo‘q; ikkinchidan, mahalliy sudning hal qiluv qarorini chet davlat hududida ijro etish tartibi (agar tegishli ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama shartnoma mavjud bo‘lmasa) amalda ishlamaydi.

Bu o‘rinda 1993-yilgi Minsk konvensiyasi muayyan yechim beradi: uning 32-moddasiga ko‘ra, ota-onalarning voyaga yetgan bolalaridan aliment undirish ishlari ota-onaning doimiy yashash joyidagi davlat sudi vakolatiga kiradi, bu esa MDHga a‘zo davlatlar (jumladan, Rossiya Federatsiyasi) doirasida sud hujjatlarini o‘zaro tan olish imkonini beradi [11]. Biroq bu konvensiya, birinchidan, faqat MDH mintaqasi bilan cheklangan, ikkinchidan, uning ijro mexanizmi zamonaviy raqamli monitoring vositalaridan foydalanmaydi va, uchinchidan, amaliyotchi yuristlar orasida yetarlicha tanilmagan. Natijada, huquqiy jihatdan mavjud bo‘lgan imkoniyat amalda deyarli qo‘llanilmaydi.

3. Xorijiy tajriba: qiyosiy-huquqiy tahlil

Xalqaro miqyosda aliment majburiyatlarning transchegaraviy ijrosi muammosi 2007-yilgi Gaaga konvensiyasi orqali institutsionallashtirilgan. Konvensiya har bir a‘zo davlatda "Markaziy organ" tashkil etilishini nazarda tutadi; bu organ chet eldagi qarzdorni qidirish, uning moliyaviy holati haqida ma‘lumot olish va sud hujjatini tan olish hamda ijro etishni tashkillashtirish bo‘yicha vakolatga ega [12; 13]. AQShda bunga o‘xshash vazifani ichki miqyosda "Shtatlararo oilaviy ta‘minotni ijro etish to‘g‘risida"gi yagona qonun (UIFSA) bajaradi, u orqali bir shtatda chiqarilgan aliment to‘g‘risidagi qaror boshqa shtatda avtomatik tan olinadi va ijro etiladi [13].

Alohida e‘tiborga molik amaliyot Yaponiyada joriy etilmoqda: so‘nggi islohotlar doirasida oila sudlariga qarzdorning daromadi va mulki to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ochib berishni talab qilish vakolati berildi, bunday talabga rioya etmaslik yoki noto‘g‘ri ma‘lumot berish uchun sezilarli miqdordagi jarima nazarda tutilgan [13]. Bu aynan O‘zbekistonda yetishmayotgan mexanizm: yashirin daromadni majburiy ochish instituti, uning bajarilmasligi esa muayyan tartibda javobgarlikni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, ko‘plab davlatlar amaliyotida ish haqidan avtomatik ushlab qolish instituti keng qo‘llaniladi, unga ko‘ra ish beruvchi sud qarori asosida ishchining maoshidan aliment miqdorini avtomatik tarzda ushlab qolib, undiruvchiga o‘tkazadi. Bu norma mohiyatan O‘zbekiston qonunchiligida ham mavjud, biroq faqat rasmiy ish beruvchi mavjud bo‘lgan holatlarga tatbiq etiladi va norasmiy bandlik sharoitida ishlamaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tajribada ikkita tamoyil ustuvor:

(a) daromadni ochishni majburiy shaklga keltirish va uni buzganlik uchun mustaqil sanksiya belgilash; (b) transchegaraviy ijroni yagona xalqaro yoki mintaqaviy konvensiya orqali institutsionallashtirish. O‘zbekiston milliy tartibga solishida ikkala tamoyil ham to‘liq shakllantirilmagan.

Taklif va tavsiyalar

Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, Oila kodeksiga aliment to‘lovchining daromadi va mulkini majburiy tarzda ochib berish (deklaratsiya qilish) institutini joriy etish, buning uchun soliq organlari, bank tizimi va Davlat xizmatlari markazlari bilan avtomatlashtirilgan axborot almashinuvi tizimini

yaratish zarur. Bunda daromad to‘g‘risida bila turib noto‘g‘ri ma’lumot berish alohida huquqbuzarlik tarkibi sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, Oliy sud Plenumining tahlil qilinayotgan qaroriga sudlarga qarzdorning bilvosita moliyaviy ko‘rsatkichlari (ko‘chmas mulk, transport vositalari, tashqi iqtisodiy faoliyat ma’lumotlari) asosida aliment miqdorini baholash huquqini beruvchi alohida band kiritish lozim, xususan norasmiy faoliyat yuritayotgan yoki daromadini tasdiqlovchi hujjat taqdim etmayotgan shaxslarga nisbatan.

Uchinchidan, tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq holda, chegara nazorati va migratsiya organlari, bojxona, Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari va Majburiy ijro byurosi o‘rtasida chet elga chiqib ketayotgan aliment to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida almashish tizimini joriy etish taklif etiladi. Bu chet elga ketishdan oldin aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzish majburiyatining amalda ijro etilishini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Adliya vazirligi 2007-yilgi Gaaga konvensiyasiga qo‘shilish maqsadga muvofiqligini o‘rganishlari, shuningdek mehnat migrantlari ko‘p bo‘lgan davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya, Qozog‘iston) bilan aliment majburiyatlarni o‘zaro tan olish va ijro etish to‘g‘risida ikki tomonlama shartnomalar tuzish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishlari lozim.

Beshinchidan, Plenum qaroriga migratsiya holatida yashovchi aliment undiruvchilar uchun onlayn murojaat va elektron hujjat almashish tartibini soddalashtiruvchi tushuntirishlar kiritilishi, shuningdek Majburiy ijro byurosi tizimida maxsus "transchegaraviy aliment ishlari" bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘linma tashkil etish masalasi ko‘rib chiqilishi tavsiya etiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016-yil 29-iyuldagi 11-sonli qarori, garchi bir necha bor takomillashtirilgan bo‘lsa-da, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy voqelikning ikki muhim omilini — norasmiy daromad va tashqi mehnat migratsiyasini yetarli darajada hisobga olmaydi. Aliment miqdorini rasmiy daromad asosida belgilashga qaratilgan mavjud yondashuv norasmiy sektorning yuqori ulushi sharoitida bolaning moddiy ta’minot olish huquqini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, migratsiya jarayonlarining kuchayishi transchegaraviy aliment munosabatlarni tartibga soluvchi samarali mexanizmlarning zarurligini ko‘rsatmoqda, biroq mavjud MDH konvensiyasi bu ehtiyojni to‘liq qondira olmaydi.

Ilgari surilgan takliflar — daromadni majburiy ochish institutini joriy etish, sudlarga bilvosita ko‘rsatkichlar asosida baholash vakolatini berish, davlat organlari o‘rtasida axborot almashinuvini avtomatlashtirish va xalqaro konvensiyalarga qo‘shilish imkoniyatini o‘rganish — milliy oila-huquqiy tizimini zamonaviy talablarga muvofiqlashtirish va bolalar huquqlarini real himoya qilish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlar sud amaliyotining miqdoriy tahlili va aliment undirish samaradorligining empirik o‘lchovlarini ishlab chiqishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yildagi tahrirda);
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 1998-yil 30-aprel;
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016-yil 29-iyuldagi 11-sonli "Sudlar tomonidan voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta’minoti uchun aliment undirishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida"gi qarori;
4. Schneider F. Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences // iqtiboslangan manba: Pirnafasov S.B;
5. Pirnafasov S.B. O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot: baholash metodologiyasi, dinamikasi va qisqartirish istiqbollari (1996–2026-yillar tahlili) // Green Economy and Development. – 2025;
6. World Bank. Uzbekistan: Toward a New Economy: Country Economic Memorandum. – Washington D.C.: World Bank Group, 2023;
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida norasmiy va yashirin iqtisodiyotning yalpi qo‘shilgan qiymati: statistik tahlilnoma. – Toshkent, 2024;
8. Полетаев Д. В. Женская трудовая миграция из Таджикистана и Киргизии в Россию // Народонаселение;
9. Тюрюканова Е. В., Зайончковская Ж. А., Карачурина Л. Б. и др. Женщины-мигранты из стран СНГ в России;
10. Мукомель В. И., Григорьева К. С., Монусова Г. А. и др. Адаптация и интеграция мигрантов в России: вызовы, реалии, индикаторы: монография;
11. Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi Konvensiya (Minsk, 1993-yil 22-yanvar);
12. Convention of 23 November 2007 on the International Recovery of Child Support and Other Forms of Family Maintenance. – The Hague Conference on Private International Law (HCCH);
13. Congressional Research Service. Child Support Enforcement and the Hague Convention on Recovery of International Child Support. – Report R43779. – Congress.gov, Library of Congress.